O’ZBEKİSTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

2022 - yil 14 - oktabr 490-10-150-Q/22 Chirchiq shahar hokimligi

Chirchiq shahardagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining ““Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2011-yil 4-apreldagi 101-son qaroriga asosan, Chirchiq shahar hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1.Shahardagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2.Shahar hokimligi:

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3.Shahar obodonlashtirish boshqarmasi hamda qabristonlarning ma’muriyati:

xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan

holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qaror “Chirchiq tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosarlari (J.Raxmonov, Sh.Mannapov) zimmalariga yuklansin.

Chirchiq shahar hokimi **D. Xidoyatov**

Chirchiq shahar hokimining
2022 yil 14 oktabrdagi
490-10-150-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Chirchiq shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Chirchiq shahri
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa	Viloyat hokimining qaroriga muvofi
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul

*narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.